

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

JADID MAKTABLARINING TASHKIL ETILISH TARIXI VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Shavkatova Nafisa Ilyos qizi

BuxDUPI boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Telefon raqami: +998978707605

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Jadidchilik harakati tarixi, kelib chiqishi sabablari, boshqa davlatlarga yoyilishi ,g'oya va maqsadlari hamda Turkistonda vujudga kelgan Jadidchilik harakatining yo'nalishlari va ularning buyuk namoyandalari, Jadid maktablarining tashkil qilinish sabablari, ahamiyati va ulardagi sharoitlar hamda jadid maktablarning boshqa maktablardan farqlari,o'xshash tomonlari, afzalliklari, ularni tashkil etilishidagi qiyinchiliklar haqida ma'lumotlar va fikrlar bayon etilgan

KALIT SO'ZLAR: Jadidchilik, Jadidchilik harakati, Ismoil Gaspirali, Qrim, jadid maktablari,taraqqiyot, ziyolilar, faoliyat

АННОТАЦИЯ: В статье представлены сведения и мнения об истории движения джадидов, его истоках, его распространении в других странах, его идеях и целях, направлениях движения джадидов, возникших в Туркестане, его великих представителей, причинах создания школ джадидов, их значении и условиях в них, а также различиях, сходствах и преимуществах школ джадидов от других школ.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Джадидизм, движение джадидизма, Исмаил Гаспральский, Крым, джадидские школы, развитие, интеллигенция, активность

ANNOTATION: This article presents information and opinions about the history of the Jadid movement, its origins, its spread to other countries, its ideas and goals, the trends of the Jadid movement that emerged in Turkestan, its great representatives, the reasons for the establishment of Jadid schools, their importance and the conditions in them, and the differences, similarities, and advantages of Jadid schools from other schools.

KEYWORDS: Jadidism, Jadidism movement, Ismail Gaspirali, Crimea, Jadid schools, development, intellectuals, activity

KIRISH

Jadidchilik- 1880-1920-yillarda Rossiya imperiyasi, Turkistonda faoliyat yuritgan ma'rifatparvarlar,taraqqiyotparvarlar oqimi.XIX asr oxiri XX asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat bo'lib hisoblanadi.Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan va buning uchun o‘zlarining mablag‘larini va bor imkoniyatlaridan kelib chiqqancha millati, yurti uchun borini berishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta’rif berilgan va millat ziyolilari "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olingan, otib tashlangan yoki surgun qilingan. Jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyingina qayta tiklandi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil Gaspirali rahbarligida qrim tatarlar o‘rtasida vujudga kelgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar va buning uchun avvalo ta’lim isloh qilganlar, yangi usul maktablari ochishgan, darsliklar yaratgan va kutubxona tashkil qilganlar. Jadidchilik harakatining shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Millat istiqbolini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari—hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg‘otish – siyosiy-ma’rifiy sohadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi:

1. Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish
2. shariatni isloh qilish.
3. xalqqa ma’rifat tarqatish.
4. Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish. uchun kurash.
5. Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish.
6. barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish.

Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlaridan tomonidan ochilgan madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo‘nalishlar ustuvor edi:

1. yangi usul maktablaritarmog‘ini kengaytirish;
2. qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish;
3. turli ma’rifiy jamiyatlar va teatr tuppallari tuzish;
4. gazeta va jurnallar chop qilish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik jamiyat qurish

Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakati, tarqalish joyi va yo‘nalishiga ko‘ra, uchga bo‘linadi:

1. Turkiston jadidchiligi

2.Buxoro jadidchiligi

3.Xiva jadidchiligi.

Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do‘kondorlar va ma’murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o‘rtasida nufuzi avvaliga past bo‘lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo‘lishdi.

Buxoroda vobkentlik dehqon Jo‘raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Xivada jadidchilikning so‘l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo‘lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o‘stirish maqsadini qo‘yishgan edi. 1904-yil „jamiyati xayriya“ tuzilib, uning ko‘magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda).

Xiva jadidlari ma‘rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan. 20-asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o‘ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o‘ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo‘ja boshchilik qilgan. 1910-yillardayoq ma‘rifat va ozodlik g‘oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ta‘lim islohotlari o‘zbek xalqining madaniy-ma‘rifiy uyg‘onishida katta ahamiyat kasb etdi. Ular yaratgan yangi usul maktablari zamonaviy o‘qitishning poydevorini qo‘ydi. Yangi usul maktablari — musulmon maktablarining ta‘lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xatsavod o‘rgatgan va yangilik g‘oyalarini ilgari surgan o‘quv yurtlari. Dastlab Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma‘rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush usuli") maktabi bo‘lgan. Ko‘p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko‘nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta‘lim beradigan maktablar ochila boshlad. Maktablar asosan 1— 4sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913-1914 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi tahziri (boshlang‘ich) sinflar, 2-bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyevning Qo‘qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5— 6sinf) ham ish boshlagan.

Xulosa

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Xulosa qilib aytganda Jadidchilik harakati yurtimiz tarixida shonli sahifalarni egalladi. Bu davrda Jadid maktablar tashkil topdi va rivojlandi. Ko'plab asarlar yaratildi, xalqimiz o'zligini anglay boshladi. Mustaqillik yillarida Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Avloniyning 2 jildli, Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy, Ibrat, Ajziy, So'fizodaning 1 jildli, shuningdek, Fayzulla Xo'jayev, Munavvarqori, Polvonniyoz hoji Yusupovning asarlari chop qilindi. Jadidlarning faoliyati darslik va qo'llanmalarga kiritildi. Jadid maktablaridagi ko'plab ta'limga oid yangiliklar hozirda ham qo'llanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulloh ash-Shoshiy. Jadid va qadim nedir? // Sadoyi Turkiston. –1914-yil 23-may. –№ 12.
2. Al-Ulamo varasatul-anbiyo // Turon. –1917-yil 6-sentabr. –№ 2.
3. Bahrom Irzayev. Turkiston jadidlarining ko'mak tashkiloti. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. 2016.
4. Jadidizm". Ensiklopedik lug'at. 1. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988y 271bet
5. Jadidizm". O'zbek sovet ensiklopediyasi.
6. Sirojiddin Ahmedov; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent:
7. Ko'makning javobi. // Turkiston. – 1923-yil 29-iyul. –№ 163.
8. uz.wikipedia.org

TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURI VA UNING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Rahmonova Nilufar Yo'ldosh qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hozirda ko'plab davlatlar ishtirok etmoqchi bo'layotgan TIMSS xalqaro baholash dasturi va uning O'zbekiston ta'lim tizimidagi ahamiyati va unida yurtimiz ishtiroki haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: TIMSS, ishtirok, reyting, rivojlanish, xalqaro baholash dasturi, ahamiyat, ta'lim, matematika

АННОТАЦИЯ: В этой статье вы получите точную информацию о международной оценочной программе TIMSS, в которой хотят участвовать многие страны, и ее значении в системе образования Узбекистана и участии в ней нашей страны.